

---

## Faol terimchilarga esdalik sovg'alari topshirildi

Bugun shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarovlar Farg'ona tumanidagi "FERGANA OSEANA" klastriga qarashli dala maydonlarida paxta yig'im-terim ishlarida faol qatnashayotgan shahrimiz hasharchilari bilan uchrashdilar.

Farg'ona shahar hokimligi tomonidan hasharchilarga faolliklari uchun o'z minnatdorchilik bildirildi. Paxtani yog'in-sochin kunlarga qoldirmay yig'ib-terishda mehnatlarini ayamay o'z hissalarini qo'shib kelayotgan Farg'ona shahrimizda yashovchi ko'ngilli aholi vakillaridan tashkil topgan hasharchi paxtakorlarga hokimlikning esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, Farg'ona shahar madaniyat bo'limi tomonidan hasharchilar uchun madaniy dastur namoyish etildi. Xushovoz xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar hasharchilarni raqsga chorladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-17 02:17:42